

ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА

о заключении договора возмездного оказания услуг

по организации размещения рекламы в Telegram-каналах

Редакция № 1

Дата вступления в силу: 24.07.2026 г.

Место публикации: https://my.tginsider.app/terms_advertisers

ООО «ADHAND TECH», созданное и действующее по законодательству Республики Узбекистан, в лице директора Мирзаевой Д.М., действующей на основании Устава, публикует настоящую Оферту о заключении договора возмездного оказания услуг по организации размещения рекламы.

1. ТЕРМИНЫ И ОПРЕДЕЛЕНИЯ

1.1. **Telegram Insider (TG Insider, Сервис)** — принадлежащая Исполнителю информационная система, доступная по адресу <https://tginsider.app> и на его поддоменах, включая <https://adspace.tginsider.app>, содержащая сайт, Личный кабинет, базы данных, программные интерфейсы и иные технические средства, используемые для выбора Telegram-каналов, формирования Заявок, передачи Рекламных материалов, учета денежных средств, фиксации параметров Размещения, обмена электронными сообщениями и документами.

1.2. **Личный кабинет** — индивидуальный раздел Заказчика в Сервисе, доступ к которому предоставляется после регистрации и идентификации Заказчика. Личный кабинет используется для акцепта настоящей Оферты, формирования и подтверждения Заявок, загрузки Рекламных материалов, оплаты услуг, отслеживания статусов, обмена сообщениями и получения документов.

1.3. **Заказчик** — юридическое лицо, индивидуальный предприниматель или физическое лицо, зарегистрированное в установленном законодательством Республики Узбекистан порядке в качестве самозанятого лица, использующее услуги исключительно в связи с предпринимательской или самостоятельной деятельностью и акцептовавшее настоящую Оферту. Оферта не предназначена для лиц, приобретающих услуги для личных, семейных, домашних или иных целей, не связанных с указанной деятельностью.

1.4. **Учетные данные** — логин, пароль, одноразовый код, адрес электронной почты, номер телефона, электронная цифровая подпись и (или) иные предусмотренные Сервисом средства идентификации и аутентификации Заказчика или Уполномоченного пользователя.

1.5. **Telegram-канал** — информационный ресурс в мессенджере Telegram, доступный для выбора в Сервисе и используемый для Размещения.

OMMAVIY OFERTA

haq evaziga xizmatlar ko'rsatish shartnomasini tuzish to'g'risida

Telegram-kanallarda reklama joylashtirishni tashkil etish bo'yicha

1-sonli tahrir

Kuchga kirish sanasi: 24.07.2026-y.

E'lon qilish joyi: https://my.tginsider.app/terms_advertisers

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat yurituvchi "ADHAND TECH" MChJ, Ustav asosida ish yurituvchi direktor D.M. Mirzayeva nomidan, reklama joylashtirishni tashkil etish bo'yicha haq evaziga xizmatlar ko'rsatish shartnomasini tuzish haqidagi ushbu Ofertani e'lon qiladi.

1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

1.1. Telegram Insider (TG Insider, Servis) — Ijrochiga tegishli bo'lgan, <https://tginsider.app> manzilida va uning subdomenlarida, shu jumladan <https://adspace.tginsider.app> manzilida foydalanish mumkin bo'lgan, Telegram-kanallarni tanlash, Arizalarni shakllantirish, Reklama materiallarini uzatish, pul mablag'larini hisobga olish, Joylashtirish parametrlarini qayd etish, elektron xabarlar va hujjatlar almashish uchun foydalaniladigan sayt, Shaxsiy kabinet, ma'lumotlar bazalari, dasturiy interfeyslar va boshqa texnik vositalarni o'z ichiga olgan axborot tizimi.

1.2. Shaxsiy kabinet — Buyurtmachining Servisdagi individual bo'limi bo'lib, unga kirish Buyurtmachi ro'yxatdan o'tkazilgani va identifikatsiya qilinganidan keyin taqdim etiladi. Shaxsiy kabinet ushbu Ofertani akseptlash, Arizalarni shakllantirish va tasdiqlash, Reklama materiallarini yuklash, xizmatlar haqini to'lash, maqomlarni kuzatish, xabarlar almashish va hujjatlarni olish uchun foydalaniladi.

1.3. Buyurtmachi — yuridik shaxs, yakka tartibdagi tadbirkor yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan, xizmatlardan faqat tadbirkorlik yoki mustaqil faoliyat bilan bog'liq holda foydalanadigan va ushbu Ofertani akseptlagan jismoniy shaxs. Oferta xizmatlarni shaxsiy, oilaviy, maishiy yoki ko'rsatilgan faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda sotib oluvchi shaxslar uchun mo'ljallanmagan.

1.4. Hisob ma'lumotlari — login, parol, bir martalik kod, elektron pochta manzili, telefon raqami, elektron raqamli imzo va (yoki) Servisda nazarda tutilgan Buyurtmachini yoki Vakolatli foydalanuvchini identifikatsiya va autentifikatsiya qilishning boshqa vositalari.

1.5. Telegram-kanal — Telegram messengeridagi, Servisda tanlash uchun mavjud bo'lgan va Joylashtirish uchun foydalaniladigan axborot resursi.

1.6. **Рекламные материалы (Материалы)** — предоставленные Заказчиком тексты, изображения, аудио-, видео- и иные материалы, ссылки, кнопки, промокоды, сведения об объекте рекламирования, посадочных страницах, условиях акций и иные элементы, предназначенные для публикации в Telegram-канале.

1.7. **Объект рекламирования** — товар, работа, услуга, средство индивидуализации, сайт, приложение, мероприятие, деятельность, лицо, предложение или иной объект, на привлечение внимания к которому направлены Рекламные материалы.

1.8. **Заявка** — сформированный Заказчиком в Личном кабинете заказ, содержащий условия конкретного Размещения, включая выбранный Telegram-канал (каналы), версию Рекламных материалов либо ссылку на них, дату публикации, срок нахождения публикации в канале, CPV, Прогноз просмотров и максимальную стоимость Размещения.

1.9. **Размещение** — комплекс действий Исполнителя по организации публикации Рекламных материалов в выбранном Telegram-канале в соответствии с подтвержденной Заявкой.

1.10. **Баланс** — отражаемая в Личном кабинете учетная величина, показывающая сумму полученной Исполнителем предварительной оплаты, доступной для оплаты Заявок, за вычетом списаний и возвратов. Баланс не является банковским счетом, электронным кошельком, вкладом или самостоятельным платежным средством; на остаток Баланса проценты не начисляются.

1.11. **Электронное сообщение** — информация в электронной форме, направленная через Личный кабинет, систему электронного документооборота, электронную почту либо иной согласованный канал и позволяющая идентифицировать отправителя.

1.12. **CPV** — стоимость одного фактического просмотра Рекламных материалов в конкретном Telegram-канале.

1.13. **Прогноз просмотров** — рассчитанное Сервисом предполагаемое количество просмотров Рекламных материалов в конкретном Telegram-канале, используемое для определения максимальной стоимости Размещения. Прогноз просмотров имеет расчетный характер и не является гарантией фактического количества просмотров.

2. СТАТУС ОФЕРТЫ И ПОРЯДОК ЕЕ АКЦЕПТА

2.1. Настоящий документ является публичной офертой ООО «ADHAND TECH» (далее — Исполнитель), адресованной неопределенному кругу юридических лиц, индивидуальных предпринимателей и самозанятых лиц, соответствующих пункту 1.3 Оферты, заключить договор возмездного оказания услуг на изложенных ниже условиях.

2.2. Оферта размещается в Сервисе в виде электронного документа с указанием номера редакции и даты вступления в силу.

2.3. Полным и безоговорочным акцептом Оферты признается совершение Заказчиком одного или нескольких следующих действий после предоставления ссылки на действующую редакцию Оферты: (a) проставление отметки о согласии с Офертой; (b)

1.6. Reklama materiallari (Materiallar) — Buyurtmachi taqdim etgan, Telegram-kanalda eʼlon qilish uchun moʻljallangan matnlar, tasvirlar, audio, video va boshqa materiallar, havolalar, tugmalar, promokodlar, reklama obyekti, maqsadli sahifalar, aksiyalar shartlari haqidagi maʼlumotlar va boshqa elementlar.

1.7. Reklama obyekti — Reklama materiallari eʼtiborni jalb qilishga qaratilgan tovar, ish, xizmat, individuallashtirish vositasi, sayt, ilova, tadbir, faoliyat, shaxs, taklif yoki boshqa obyekt.

1.8. Ariza — Buyurtmachi tomonidan Shaxsiy kabinetda shakllantirilgan, muayyan Joylashtirish shartlarini, shu jumladan tanlangan Telegram-kanal (kanallar), Reklama materiallarining versiyasi yoki ularga havola, eʼlon qilish sanasi, eʼlonning kanalda turish muddati, CPV, Koʻrishlar prognozi va Joylashtirishning maksimal qiymatini oʻz ichiga olgan buyurtma.

1.9. Joylashtirish — tasdiqlangan Arizaga muvofiq tanlangan Telegram-kanalda Reklama materiallarini eʼlon qilishni tashkil etish boʻyicha Ijrochining harakatlari majmui.

1.10. Balans — Shaxsiy kabinetda aks ettiriladigan, Ijrochi olgan, hisobdan chiqarishlar va qaytarishlar chegirilgan holda Arizalar haqini toʻlash uchun mavjud boʻlgan oldindan toʻlov summasini koʻrsatuvchi hisob koʻrsatkichi. Balans bank hisobvaragʻi, elektron hamyon, omonat yoki mustaqil toʻlov vositasi hisoblanmaydi; Balans qoldigʻiga foizlar hisoblanmaydi.

1.11. Elektron xabar — Shaxsiy kabinet, elektron hujjat aylanishi tizimi, elektron pochta yoki boshqa kelishilgan kanal orqali yuborilgan hamda joʻnatuvchini identifikatsiya qilish imkonini beruvchi elektron shakldagi axborot.

1.12. CPV — muayyan Telegram-kanalda Reklama materiallarining bitta haqiqiy koʻrish qiymati.

1.13. Koʻrishlar prognozi — Servis tomonidan hisoblangan, muayyan Telegram-kanaldagi Reklama materiallari koʻrishlarining taxminiy soni boʻlib, Joylashtirishning maksimal qiymatini aniqlash uchun foydalaniladi. Koʻrishlar prognozi hisob-kitob xususiyatiga ega va haqiqiy koʻrishlar sonining kafolati hisoblanmaydi.

2. OFERTANING MAQOMI VA UNI AKSEPTLASH TARTIBI

2.1. Ushbu hujjat “ADHAND TECH” MChJning (keyingi oʻrinlarda — Ijrochi) Ofertaning 1.3-bandiga muvofiq boʻlgan nomaʼlum doiradagi yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va oʻzini oʻzi band qilgan shaxslarga quyida bayon etilgan shartlarda haq evaziga xizmatlar koʻrsatish shartnomasini tuzish toʻgʻrisida yoʻllangan ommaviy ofertasidir.

2.2. Ofera Servisda tahrir raqami va kuchga kirish sanasi koʻrsatilgan elektron hujjat shaklida joylashtiriladi.

2.3. Buyurtmachining Ofertaning amaldagi tahririga havola taqdim etilganidan keyin quyidagi harakatlardan birini yoki bir nechtasini amalga oshirishi Ofertaning toʻliq va soʻzsiz aksepti deb eʼtirof etiladi: (a) Ofera bilan rozilik belgisini qoʻyish; (b) birinchi Arizani yuborish; (c) toʻlovni

направление первой Заявки; (с) внесение оплаты. Если указанные действия совершаются в разные моменты, Договор считается заключенным в момент получения Исполнителем первого действия, однозначно выражающего согласие Заказчика со всей Офертой.

2.4. Регистрация в Сервисе без выраженного согласия с Офертой и без направления Заявки сама по себе не создает обязанности Заказчика приобретать услуги или производить оплату.

2.5. Акцептуя Оферту, лицо подтверждает, что: (а) Заказчик имеет статус, предусмотренный пунктом 1.3 Оферты, и вправе заключить Договор; (б) услуги приобретаются для предпринимательской или самостоятельной деятельности; (с) лицо, совершающее акцепт от имени Заказчика, обладает необходимыми полномочиями; (d) сведения, внесенные в Сервис, являются полными и достоверными; (е) Заказчик понимает правовые последствия электронных действий и согласен использовать предусмотренные Сервисом способы идентификации.

2.6. Договор заключается в электронной форме без составления единого документа на бумажном носителе и без собственноручных подписей Сторон.

2.7. Исполнитель формирует и хранит электронное подтверждение акцепта, содержащее доступные технические сведения, в том числе идентификатор Заказчика, редакцию Оферты, дату и время действия, идентификатор сессии, IP-адрес и иные системные данные. Заказчику предоставляется доступ к сведениям о применимой редакции Оферты.

3. ПРЕДМЕТ ДОГОВОРА

3.1. Исполнитель обязуется по Заявкам Заказчика оказывать услуги по организации Размещения Рекламных материалов в Telegram-каналах, доступных в Сервисе, а Заказчик обязуется принимать и оплачивать услуги на условиях Оферты и соответствующих Заявок.

3.2. Услуги включают в себя: предоставление функционала Личного кабинета, обработку Заявки, модерацию Материалов, взаимодействие с владельцем или администратором Telegram-канала, передачу Материалов, организацию публикации, контроль предусмотренного Заявкой срока нахождения публикации, фиксацию статуса и оформление электронных документов.

3.3. Исполнитель оказывает услуги самостоятельно и (или) с привлечением третьих лиц, включая владельцев и администраторов Telegram-каналов. Исполнитель вступает с такими лицами в отношения от своего имени; Заказчик не приобретает прямых прав требования к владельцу Telegram-канала.

3.4. Исполнитель не является изготовителем Рекламных материалов, продавцом рекламируемых товаров или услуг либо представителем Заказчика перед потребителями и государственными органами.

3.5. Исполнитель не гарантирует достижение Прогноза просмотров, а также определенное количество переходов, заявок, продаж, охват, конверсию, стоимость привлечения клиента или иной маркетинговый результат. Несовпадение фактического количества просмотров с

амалга oshirish. Agar ko'rsatilgan harakatlar turli vaqtlarda amalga oshirilsa, Ijrochi Buyurtmachining butun Ofertaga roziligini aniq ifodalovchi birinchi harakatni olgan paytda Shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

2.4. Oferta bilan aniq rozilik bildirmasdan va Ariza yubormasdan Servisda ro'yxatdan o'tishning o'zi Buyurtmachiga xizmatlarni sotib olish yoki to'lovni amalga oshirish majburiyatini yuklamaydi.

2.5. Ofertani akseptlab, shaxs quyidagilarni tasdiqlaydi: (a) Buyurtmachi Ofertaning 1.3-bandida nazarda tutilgan maqomga ega va Shartnoma tuzishga haqli; (b) xizmatlar tadbirkorlik yoki mustaqil faoliyat uchun sotib olinadi; (c) Buyurtmachi nomidan akseptni amalga oshiruvchi shaxs zarur vakolatlarga ega; (d) Servisga kiritilgan ma'lumotlar to'liq va ishonchli; (e) Buyurtmachi elektron harakatlarning huquqiy oqibatlarini tushunadi va Servisda nazarda tutilgan identifikatsiya usullaridan foydalanishga rozidir.

2.6. Shartnoma qog'ozdagi yagona hujjatni tuzmasdan va Tomonlarning qo'lda qo'yilgan imzolarisiz elektron shaklda tuziladi.

2.7. Ijrochi akseptning mavjud texnik ma'lumotlarni, shu jumladan Buyurtmachi identifikatori, Oferta tahriri, harakat sanasi va vaqti, sessiya identifikatori, IP-manzil va boshqa tizim ma'lumotlarini o'z ichiga olgan elektron tasdig'ini shakllantiradi va saqlaydi. Buyurtmachiga Ofertaning qo'llaniladigan tahriri haqidagi ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati beriladi.

3. SHARTNOMA PREDMETI

3.1. Ijrochi Buyurtmachining Arizalariga ko'ra Servisda mavjud Telegram-kanallarda Reklama materiallarini Joylashtirishni tashkil etish xizmatlarini ko'rsatish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa xizmatlarni Oferta va tegishli Arizalar shartlarida qabul qilish va to'lash majburiyatini oladi.

3.2. Xizmatlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: Shaxsiy kabinet funksionalini taqdim etish, Arizani qayta ishlash, Materiallarni moderatsiya qilish, Telegram-kanal egasi yoki ma'muri bilan hamkorlik qilish, Materiallarni uzatish, e'lon qilishni tashkil etish, Arizada nazarda tutilgan e'lonning turish muddatini nazorat qilish, maqomni qayd etish va elektron hujjatlarni rasmiylashtirish.

3.3. Ijrochi xizmatlarni mustaqil ravishda va (yoki) uchinchi shaxslarni, shu jumladan Telegram-kanallar egalari va ma'murlarini jalb qilgan holda ko'rsatadi. Ijrochi bunday shaxslar bilan o'z nomidan munosabatlarga kirishadi; Buyurtmachi Telegram-kanal egasiga nisbatan bevosita talab qilish huquqini olmaydi.

3.4. Ijrochi Reklama materiallarini tayyorlovchi, reklama qilinayotgan tovarlar yoki xizmatlarning sotuvchisi yoxud Buyurtmachining iste'molchilar va davlat organlari oldidagi vakili hisoblanmaydi.

3.5. Ijrochi Ko'rishlar prognoziga erishilishini, shuningdek muayyan miqdordagi o'tishlar, arizalar, savdolar, qamrov, konversiya, mijozni jalb qilish qiymati yoki boshqa marketing natijasini kafolatlamaydi. Haqiqiy ko'rishlar sonining Ko'rishlar prognoziga mos kelmasligi o'z-

Прогнозом просмотров само по себе не является нарушением Договора и учитывается при определении итоговой стоимости Размещения в соответствии с разделом 7 Оферты.

4. ЛИЧНЫЙ КАБИНЕТ, ИДЕНТИФИКАЦИЯ

4.1. Для использования Сервиса Заказчик указывает сведения, запрашиваемые Сервисом, в том числе: юридическое лицо — полное наименование, организационно-правовую форму, регистрационный номер, юридический и почтовый адреса, банковские реквизиты и идентификационный номер налогоплательщика (ИНН); индивидуальный предприниматель или самозанятое лицо — фамилию, имя, отчество (при наличии), регистрационные сведения, банковские реквизиты и персональный идентификационный номер физического лица (ПИНФЛ). Заказчик также указывает данные контактного лица, номер телефона, адрес электронной почты и иные необходимые сведения.

4.2. Заказчик обязан правильно указывать в Сервисе и поддерживать в актуальном состоянии свой ИНН, если Заказчик является юридическим лицом, либо свой ПИНФЛ, если Заказчик является индивидуальным предпринимателем или самозанятым лицом. Исполнитель вправе запросить документы и сведения, подтверждающие регистрационный статус Заказчика и принадлежность указанных реквизитов.

4.3. Заказчик обязан обеспечивать конфиденциальность Учетных данных и незамедлительно уведомить Исполнителя о компрометации доступа или обнаружении несанкционированных действий. До получения такого уведомления действия, совершенные с корректным использованием Учетных данных, предполагаются совершенными Заказчиком.

5. ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ ИСПОЛНИТЕЛЯ

5.1. Исполнитель обязан: обеспечить доступ к основному функционалу Сервиса с учетом профилактических и аварийных работ; принимать и обрабатывать Заявки; организовывать Размещение в соответствии с принятыми Заявками; не вносить изменения в Материалы без согласия Заказчика, использовать Материалы только для исполнения Договора и защиты законных интересов; оформлять документы в предусмотренном Офертой порядке.

5.2. Исполнитель вправе устанавливать технические требования к форматам, размерам и качеству файлов, срокам передачи Материалов, а также правила модерации и перечень категорий, не принимаемых к Размещению. Такие требования размещаются в Сервисе.

5.3. Исполнитель вправе отклонить Заявку, если Размещение нарушает или может нарушать законодательство, права третьих лиц, правила Telegram или Telegram-канала, требования Сервиса либо создает обоснованный риск санкций, блокировки, мошенничества или ущерба деловой репутации. Если незаконность или риск выявлены после начала публикации, Исполнитель вправе досрочно прекратить публикацию без возмещения Заказчику каких-либо убытков и компенсаций.

5.4. Исполнитель вправе проводить плановые технические работы, временно ограничивать доступ для обеспечения безопасности, предотвращения злоупотреблений или исполнения

оʻzidan Shartnomaning buzilishi hisoblanmaydi va Joylashtirishning yakuniy qiymatini Ofertaning 7-boʻlimiga muvofiq aniqlashda hisobga olinadi.

4. SHAXSIY KABINET, IDENTIFIKATSIYA

4.1. Servisdan foydalanish uchun Buyurtmachi Servis soʻragan maʼlumotlarni, shu jumladan: yuridik shaxs — toʻliq nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, roʻyxatdan oʻtkazish raqami, yuridik va pochta manzillari, bank rekvizitlari va soliq toʻlovchining identifikatsiya raqami (STIR); yakka tartibdagi tadbirkor yoki oʻzini oʻzi band qilgan shaxs — familiyasi, ismi, otasining ismi (mavjud boʻlsa), roʻyxatdan oʻtkazish maʼlumotlari, bank rekvizitlari va jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini (JShShIR) koʻrsatadi. Buyurtmachi, shuningdek, aloqa qiluvchi shaxsning maʼlumotlari, telefon raqami, elektron pochta manzili va boshqa zarur maʼlumotlarni koʻrsatadi.

4.2. Agar Buyurtmachi yuridik shaxs boʻlsa, u oʻz STIRini, agar Buyurtmachi yakka tartibdagi tadbirkor yoki oʻzini oʻzi band qilgan shaxs boʻlsa, oʻz JShShIRini Servisda toʻgʻri koʻrsatishi va dolzarb holatda saqlashi shart. Ijrochi Buyurtmachining roʻyxatdan oʻtganlik maqomini va koʻrsatilgan rekvizitlarning unga tegishliligini tasdiqlovchi hujjatlar hamda maʼlumotlarni soʻrashga haqli.

4.3. Buyurtmachi Hisob maʼlumotlarining maxfiyligini taʼminlashi va kirish maʼlumotlari buzilgani yoki ruxsatsiz harakatlar aniqlangani haqida Ijrochini darhol xabardor qilishi shart. Bunday xabarnoma olinguniga qadar Hisob maʼlumotlaridan toʻgʻri foydalangan holda amalga oshirilgan harakatlar Buyurtmachi tomonidan amalga oshirilgan deb taxmin qilinadi.

5. IJROCHINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Ijrochi quyidagilarga majbur: profilaktika va avariya ishlarini hisobga olgan holda Servisning asosiy funksionalidan foydalanish imkonini taʼminlash; Arizalarni qabul qilish va qayta ishlash; qabul qilingan Arizalarga muvofiq Joylashtirishni tashkil etish; Buyurtmachining roziligisiz Materiallarga oʻzgartirish kiritmaslik, Materiallardan faqat Shartnomani bajarish va qonuniy manfaatlarni himoya qilish uchun foydalanish; hujjatlarni Ofertada nazarda tutilgan tartibda rasmiylashtirish.

5.2. Ijrochi fayllarning formatlari, oʻlchamlari va sifatiga, Materiallarni topshirish muddatlariga texnik talablar, shuningdek moderatsiya qoidalari va Joylashtirish uchun qabul qilinmaydigan toifalar roʻyxatini belgilashga haqli. Bunday talablar Servisda joylashtiriladi.

5.3. Agar Joylashtirish qonunchilikni, uchinchi shaxslarning huquqlarini, Telegram yoki Telegram-kanal qoidalarini, Servis talablarini buzsa yoki buzishi mumkin boʻlsa yoxud sanksiyalar, bloklash, firibgarlik yoki ishchanlik obroʻsigar zarar yetkazishning asosli xavfini tugʻdirsa, Ijrochi Arizani rad etishga haqli. Agar noqonuniylik yoki xavf eʼlon qilish boshlanganidan keyin aniqlansa, Ijrochi Buyurtmachiga biror-bir zarar va kompensatsiyalarni qoplamasdan eʼlonni muddatidan oldin toʻxtatishga haqli.

5.4. Ijrochi rejali texnik ishlarni oʻtkazish, xavfsizlikni taʼminlash, suiisteʼmollarning oldini olish yoki davlat organlari talablarini bajarish uchun foydalanish imkonini vaqtincha cheklashga haqli.

требований государственных органов. Исполнитель принимает разумные меры для минимизации перерывов и, когда это возможно, предварительно уведомляет Заказчика.

5.5. Исполнитель вправе приостановить принятие новых Заявок и исполнение Заявок, еще не начатых, при недостаточном Балансе, возврате или оспаривании платежа, наличии просроченной задолженности, непредоставлении документов либо существенном нарушении Заказчиком своих обязательств.

6. ОБЯЗАННОСТИ И ГАРАНТИИ ЗАКАЗЧИКА

6.1. Заказчик обязан своевременно предоставлять полные, достоверные и технически пригодные Материалы для модерации до их размещения, сведения и документы.

6.2. Заказчик гарантирует, что Материалы, объект рекламирования, посадочные страницы и деятельность Заказчика соответствуют законодательству Республики Узбекистан и законодательству территории, на которую направлена реклама, а также правилам Telegram и выбранного Telegram-канала.

6.3. Для рекламы, направленной на потребление и распространение на территории Республики Узбекистан, Заказчик предоставляет Материалы на государственном языке Республики Узбекистан либо обеспечивает одновременное наличие текста на государственном языке и перевода в случаях и порядке, допускаемых законодательством. Заказчик самостоятельно оценивает применимость предусмотренных законом исключений для ресурсов, размещающих материалы исключительно на иностранных языках.

6.4. Заказчик обеспечивает наличие в Материалах обязательного обозначения рекламы, предупреждений, возрастных ограничений, сведений о лицензии, регистрации, противопоказаниях и иных данных, требуемых для соответствующего объекта рекламирования. Исполнитель вправе добавить техническое обозначение рекламы или обязательное предупреждение, не меняя коммерческого смысла Материалов.

6.5. До направления Заявки Заказчик обязан получить и по запросу представить лицензии, разрешения, сертификаты, регистрационные удостоверения, согласия, гарантийные письма и иные документы, необходимые для рекламирования соответствующих товаров, работ, услуг или деятельности.

6.6. Заказчик гарантирует наличие прав на использование и передачу Исполнителю текстов, изображений, видео, музыки, товарных знаков, фирменных наименований, изображений физических лиц, персональных данных и иных охраняемых объектов, содержащихся в Материалах.

6.7. Заказчик не вправе после принятия Заявки без уведомления Исполнителя изменять Материалы, содержание посадочной страницы, объект рекламирования, цену, условия акции или иные сведения таким образом, что размещенная реклама станет недостоверной, незаконной или не соответствующей Заявке.

6.8. Заказчик обязан самостоятельно и своевременно отвечать на требования и запросы потребителей и государственных органов, относящиеся к рекламируемым товарам,

Ijrochi uzilishlarni kamaytirish uchun oqilona choralar ko'radi va imkon qadar Buyurtmachini oldindan xabardor qiladi.

5.5. Balans yetarli bo'lmaganda, to'lov qaytarilganda yoki nizolashilganda, muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lganda, hujjatlar taqdim etilmaganda yoxud Buyurtmachi o'z majburiyatlarini jiddiy ravishda buzganida Ijrochi yangi Arizalarni qabul qilishni va hali boshlanmagan Arizalarni bajarishni to'xtatib turishga haqli.

6. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI VA KAFOLATLARI

6.1. Buyurtmachi Materiallar joylashtirilishidan oldin moderatsiya uchun to'liq, ishonchli va texnik jihatdan yaroqli Materiallarni, ma'lumotlar hamda hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etishi shart.

6.2. Buyurtmachi Materiallar, reklama obyekti, maqsadli sahifalar va Buyurtmachining faoliyati O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va reklama yo'naltirilgan hudud qonunchiligiga, shuningdek Telegram hamda tanlangan Telegram-kanal qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

6.3. O'zbekiston Respublikasi hududida iste'mol qilish va tarqatishga yo'naltirilgan reklama uchun Buyurtmachi Materiallarni O'zbekiston Respublikasining davlat tilida taqdim etadi yoki qonunchilikda ruxsat etilgan hollarda va tartibda davlat tilidagi matn bilan tarjimaning bir vaqtning o'zida mavjud bo'lishini ta'minlaydi. Buyurtmachi materiallarni faqat chet tillarida joylashtiradigan resurslar uchun qonunda nazarda tutilgan istisnolarning qo'llanilishini mustaqil ravishda baholaydi.

6.4. Buyurtmachi Materiallarda reklamaning majburiy belgisi, ogohlantirishlar, yoshga doir cheklovlar, litsenziya, ro'yxatdan o'tkazish, qarshi ko'rsatmalar haqidagi ma'lumotlar va tegishli reklama obyekti uchun talab qilinadigan boshqa ma'lumotlarning mavjudligini ta'minlaydi. Ijrochi Materiallarning tijorat mazmunini o'zgartirmagan holda reklamaning texnik belgisini yoki majburiy ogohlantirishni qo'shishga haqli.

6.5. Buyurtmachi Arizani yuborishdan oldin tegishli tovarlar, ishlar, xizmatlar yoki faoliyatni reklama qilish uchun zarur bo'lgan litsenziyalar, ruxsatnomalar, sertifikatlar, ro'yxatdan o'tkazish guvohnomalari, roziliklar, kafolat xatlari va boshqa hujjatlarni olishi hamda so'rovga ko'ra taqdim etishi shart.

6.6. Buyurtmachi Materiallarda mavjud bo'lgan matnlar, tasvirlar, video, musiqa, tovar belgilari, firma nomlari, jismoniy shaxslarning tasvirlari, shaxsga doir ma'lumotlar va boshqa muhofaza qilinadigan obyektlardan foydalanish hamda ularni Ijrochiga topshirish huquqlariga ega ekanini kafolatlaydi.

6.7. Buyurtmachi Ariza qabul qilinganidan keyin Ijrochini xabardor qilmasdan Materiallarni, maqsadli sahifa mazmunini, reklama obyekti, narxni, aksiya shartlarini yoki boshqa ma'lumotlarni joylashtirilgan reklama ishonchsiz, noqonuniy yoki Arizaga nomuvofiq bo'lib qoladigan tarzda o'zgartirishga haqli emas.

6.8. Buyurtmachi reklama qilinayotgan tovarlar, ishlar, xizmatlar va u taqdim etgan axborot mazmuniga taalluqli iste'molchilar hamda davlat organlarining talab va so'rovlariga mustaqil

работам, услугам и содержанию предоставленной им информации, и оказывать Исполнителю разумное содействие в рассмотрении связанных с Материалами обращений.

6.9. Заказчик обязан учитывать индивидуальные требования к Рекламным материалам со стороны Telegram-каналов на которых он планирует размещать Материалы. Материалы не соответствующие требованиям Telegram-каналов размещению не подлежат.

7. ЦЕНА, ОПЛАТА, БАЛАНС И ВОЗВРАТЫ

7.1. Стоимость Размещения в Telegram-канале формируется в TG Insider на основании CPV, Прогноза просмотров, правил Сервиса и условий, актуальных на момент направления Заказчиком соответствующей Заявки.

7.2. Сервис периодически рассчитывает Прогноз просмотров на основании доступных статистических данных Telegram-канала и применяемой Сервисом методики. Прогноз просмотров может изменяться при обновлении статистических данных Telegram-канала, но его изменение после направления Заявки не изменяет зафиксированную для такой Заявки максимальную стоимость Размещения.

7.3. В момент направления Заказчиком Заявки Сервис фиксирует максимальную стоимость соответствующего Размещения, рассчитанную по формуле: **максимальная стоимость Размещения = актуальный на момент направления Заявки Прогноз просмотров × актуальный на тот же момент CPV**. Зафиксированная максимальная стоимость Размещения не увеличивается, если фактическое количество просмотров превысит Прогноз просмотров.

7.4. Итоговая стоимость Размещения определяется после его завершения исходя из фактического количества просмотров Рекламных материалов, зафиксированного Сервисом, и рассчитывается по формуле: **итоговая стоимость Размещения = фактическое количество просмотров × зафиксированный CPV, но не более максимальной стоимости Размещения, установленной в соответствии с пунктом 7.3 Оферты**. Если фактическое количество просмотров равно Прогнозу просмотров или превышает его, итоговая стоимость Размещения равна максимальной стоимости Размещения.

7.5. Услуги оказываются на условиях 100-процентной предварительной оплаты. Заказчик пополняет Баланс исключительно путем безналичного перечисления денежных средств на банковский счет Исполнителя на основании выставленного Исполнителем счета. Обязанность Заказчика по оплате считается исполненной после зачисления денежных средств на банковский счет Исполнителя.

7.6. Платеж должен быть произведен самим Заказчиком с указанием в платежном документе номера счета и идентификационных данных Заказчика: ИНН — для юридического лица; ПИНФЛ — для индивидуального предпринимателя или самозанятого лица. Исполнитель вправе не зачислять платеж на Баланс до получения сведений, позволяющих однозначно идентифицировать Заказчика и назначение платежа.

7.7. При технической ошибке, вследствие которой Баланс, возврат или доступный объем услуг завышены, Заказчик обязан уведомить Исполнителя. Ошибка не создает у Заказчика

ravishda va o'z vaqtida javob berishi, shuningdek Materiallar bilan bog'liq murojaatlarni ko'rib chiqishda Ijrochiga oqilona ko'maklashishi shart.

6.9. Buyurtmachi Materiallarni joylashtirishni rejalashtirayotgan Telegram-kanallarning Reklama materiallariga qo'yadigan individual talablarini hisobga olishi shart. Telegram-kanallar talablariga muvofiq bo'lmagan Materiallar joylashtirilmaydi.

7. NARX, TO'LOV, BALANS VA QAYTARISHLAR

7.1. Telegram-kanaldagi Joylashtirish qiymati TG Insiderda Buyurtmachi tegishli Arizani yuborgan paytda amalda bo'lgan CPV, Ko'rishlar prognozi, Servis qoidalari va shartlari asosida shakllantiriladi.

7.2. Servis Telegram-kanalning mavjud statistik ma'lumotlari va Servis qo'llaydigan metodika asosida Ko'rishlar prognozini davriy ravishda hisoblaydi. Telegram-kanalning statistik ma'lumotlari yangilanganda Ko'rishlar prognozi o'zgarishi mumkin, biroq Ariza yuborilganidan keyin uning o'zgarishi bunday Ariza uchun qayd etilgan Joylashtirishning maksimal qiymatini o'zgartirmaydi.

7.3. Buyurtmachi Arizani yuborgan paytda Servis tegishli Joylashtirishning quyidagi formula bo'yicha hisoblangan maksimal qiymatini qayd etadi: Joylashtirishning maksimal qiymati = Ariza yuborilgan paytda amalda bo'lgan Ko'rishlar prognozi × ayni paytda amalda bo'lgan CPV. Agar haqiqiy ko'rishlar soni Ko'rishlar prognozidan oshsa, Joylashtirishning qayd etilgan maksimal qiymati oshirilmaydi.

7.4. Joylashtirishning yakuniy qiymati u tugallanganidan keyin Servis qayd etgan Reklama materiallarining haqiqiy ko'rishlar sonidan kelib chiqib aniqlanadi va quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi: Joylashtirishning yakuniy qiymati = haqiqiy ko'rishlar soni × qayd etilgan CPV, biroq Ofertaning 7.3-bandiga muvofiq belgilangan Joylashtirishning maksimal qiymatidan oshmaydi. Agar haqiqiy ko'rishlar soni Ko'rishlar prognoziga teng yoki undan ko'p bo'lsa, Joylashtirishning yakuniy qiymati Joylashtirishning maksimal qiymatiga teng bo'ladi.

7.5. Xizmatlar 100 foiz oldindan to'lov sharti bilan ko'rsatiladi. Buyurtmachi Balansni faqat Ijrochi taqdim etgan hisob asosida pul mablag'larini Ijrochining bank hisobvarag'iga naqdsiz o'tkazish yo'li bilan to'ldiradi. Buyurtmachining to'lov majburiyati pul mablag'lari Ijrochining bank hisobvarag'iga tushganidan keyin bajarilgan hisoblanadi.

7.6. To'lov Buyurtmachining o'zi tomonidan to'lov hujjatida hisob raqami va Buyurtmachining identifikatsiya ma'lumotlari: yuridik shaxs uchun — STIR; yakka tartibdagi tadbirkor yoki o'zini o'zi band qilgan shaxs uchun — JShShIR ko'rsatilgan holda amalga oshirilishi kerak. Ijrochi Buyurtmachi va to'lov maqsadini bir ma'noda identifikatsiya qilish imkonini beruvchi ma'lumotlarni olguniga qadar to'lovni Balansga kiritmaslikka haqli.

7.7. Balans, qaytariladigan summa yoki mavjud xizmatlar hajmi oshirib ko'rsatilishiga olib kelgan texnik xatolik yuz berganda, Buyurtmachi Ijrochini xabardor qilishi shart. Xatolik

право на соответствующие денежные средства или услуги. Возникшая задолженность погашается в течение 5 (пяти) Рабочих дней после получения требования.

7.8. Неиспользованный остаток Баланса по заявлению Заказчика может быть возвращен после сверки расчетов на банковский счет самого Заказчика, с которого поступила оплата. Срок возврата — до 10 (десяти) Рабочих дней, если иной срок не предусмотрен законодательством или правилами обслуживающего банка.

8. ПОРЯДОК РАЗМЕЩЕНИЯ, СТАТУСЫ И МОДЕРАЦИЯ

8.1. Модерация Исполнителя является контрольной процедурой и не представляет собой юридическое заключение, государственное разрешение или гарантию законности. Согласование или фактическая публикация Материалов не переносит на Исполнителя ответственность Заказчика за содержание предоставленной им информации.

8.2. Исполнитель сообщает о выявленных при модерации замечаниях через Личный кабинет. После устранения замечаний Заказчик вправе подать новую заявку.

8.3. До направления Заявки Заказчик самостоятельно проверяет в Сервисе требования Telegram-канала к Рекламным материалам, дату и длительность публикации, CPV, Прогноз просмотров и максимальную стоимость Размещения.

8.4. До направления Заказчиком Заявки отображаемые в Сервисе сведения о доступности Telegram-канала, дате Размещения, CPV и Прогнозе просмотров носят информационный характер и могут изменяться. В момент направления Заявки CPV, Прогноз просмотров и максимальная стоимость Размещения фиксируются для такой Заявки в соответствии с пунктами 7.2–7.4 Оферты.

8.5. Статусы в Личном кабинете отражают этап обработки Заявки и имеют юридическое значение для Сторон. Заявка Заказчика, история статусов и изменений и привязанная к Заявке версия Материалов образуют единый электронный комплект документов по соответствующему Размещению

8.6. После направления Заказчиком Заявки и присвоения ей статуса «Модерация» на Балансе Заказчика резервируются денежные средства в размере максимальной стоимости Размещения. Зафиксированные для Заявки CPV, Прогноз просмотров и максимальная стоимость Размещения не изменяются.

8.7. Если в результате модерации Исполнитель отклонил Материалы, зарезервированная сумма освобождается и вновь становится доступной на Балансе. Если Материалы успешно прошли модерацию, сумма остается зарезервированной до завершения Размещения. После завершения Размещения с Баланса списывается его итоговая стоимость, рассчитанная согласно пункту 7.4 Оферты, а разница между максимальной и итоговой стоимостью освобождается на Балансе Заказчика.

8.8. Направленная Заказчиком Заявка является электронным предложением согласовать конкретные условия Размещения. Заявка становится обязательной для Сторон после присвоения ей в Личном кабинете статуса «Опубликовано», означающего принятие Исполнителем Заявки к исполнению.

Buyurtmachiga tegishli pul mablagʻlari yoki xizmatlarga nisbatan huquq bermaydi. Yuzaga kelgan qarzdorlik talab olinganidan keyin 5 (besh) Ish kuni ichida toʻlanadi.

7.8. Balansning foydalanilmagan qoldigʻi Buyurtmachining arizasiga koʻra hisob-kitoblar solishtirilganidan keyin toʻlov kelib tushgan Buyurtmachining oʻz bank hisobvaragʻiga qaytarilishi mumkin. Qaytarish muddati — agar qonunchilikda yoki xizmat koʻrsatuvchi bank qoidalarida boshqa muddat nazarda tutilmagan boʻlsa, 10 (oʻn) Ish kunigacha.

8. JOYLASHTIRISH TARTIBI, MAQOMLAR VA MODERATSIYA

8.1. Ijrochi moderatsiyasi nazorat tartib-taomili boʻlib, yuridik xulosa, davlat ruxsati yoki qonuniylik kafolati hisoblanmaydi. Materiallarning kelishilishi yoki amalda eʼlon qilinishi Buyurtmachining oʻzi taqdim etgan axborot mazmuni uchun javobgarligini Ijrochiga oʻtkazmaydi.

8.2. Ijrochi moderatsiya vaqtida aniqlangan eʼtirozlar haqida Shaxsiy kabinet orqali xabar beradi. Eʼtirozlar bartaraf etilganidan keyin Buyurtmachi yangi ariza berishga haqli.

8.3. Buyurtmachi Arizani yuborishdan oldin Servisda Telegram-kanalning Reklama materiallariga qoʻyadigan talablarini, eʼlon qilish sanasi va davomiyligini, CPV, Koʻrishlar prognozi hamda Joylashtirishning maksimal qiymatini mustaqil ravishda tekshiradi.

8.4. Buyurtmachi Arizani yuborishidan oldin Servisda koʻrsatiladigan Telegram-kanal mavjudligi, Joylashtirish sanasi, CPV va Koʻrishlar prognozi haqidagi maʼlumotlar axborot xususiyatiga ega va oʻzgarishi mumkin. Ariza yuborilgan paytda CPV, Koʻrishlar prognozi va Joylashtirishning maksimal qiymati bunday Ariza uchun Ofertaning 7.2–7.4-bandlariga muvofiq qayd etiladi.

8.5. Shaxsiy kabinetdagi maqomlar Arizani qayta ishlash bosqichini aks ettiradi va Tomonlar uchun yuridik ahamiyatga ega. Buyurtmachining Arizasi, maqomlar va oʻzgartirishlar tarixi hamda Arizaga biriktirilgan Materiallar versiyasi tegishli Joylashtirish boʻyicha yagona elektron hujjatlar toʻplamini tashkil etadi

8.6. Buyurtmachi Arizani yuborganidan va unga “Moderatsiya” maqomi berilganidan keyin Buyurtmachining Balansida Joylashtirishning maksimal qiymati miqdoridagi pul mablagʻlari zaxiraga olinadi. Ariza uchun qayd etilgan CPV, Koʻrishlar prognozi va Joylashtirishning maksimal qiymati oʻzgartirilmaydi.

8.7. Agar moderatsiya natijasida Ijrochi Materiallarni rad etsa, zaxiraga olingan summa boʻshatiladi va Balansda yana mavjud boʻladi. Agar Materiallar moderatsiyadan muvaffaqiyatli oʻtsa, summa Joylashtirish yakunlanguniga qadar zaxirada qoladi. Joylashtirish yakunlanganidan keyin Balansdan uning Ofertaning 7.4-bandiga muvofiq hisoblangan yakuniy qiymati chiqariladi, maksimal va yakuniy qiymat oʻrtasidagi farq esa Buyurtmachining Balansida boʻshatiladi.

8.8. Buyurtmachi yuborgan Ariza Joylashtirishning muayyan shartlarini kelishish toʻgʻrisidagi elektron taklifdir. Shaxsiy kabinetda Arizaga Ijrochi Arizani bajarish uchun qabul qilganini anglatuvchi “Eʼlon qilindi” maqomi berilganidan keyin Ariza Tomonlar uchun majburiy boʻladi.

8.9. После присвоения статуса «*Опубликовано*» отзыв Заявки становится невозможен, отказ Заказчика от оказанных услуг является неправомерным и подлежит отклонению.

8.10. Если Размещение не состоялось по обстоятельствам, не связанным с нарушением Заказчика, вся сумма, зарезервированная для оплаты такого Размещения, освобождается на Балансе Заказчика.

8.11. Если публикация находилась в Telegram-канале меньше срока, прямо указанного в Заявке, стоимость соответствующего Размещения уменьшается пропорционально неоказанной части с восстановлением средств на Балансе Заказчика. Пропорциональный возврат не применяется, если удаление вызвано нарушением Заказчика, незаконностью Материалов, требованием государственного органа, блокировкой Telegram или иным обстоятельством, за которое Исполнитель не отвечает..

8.12. Telegram и владельцы Telegram-каналов являются независимыми третьими лицами. Исполнитель не контролирует решения Telegram о блокировке, ограничении доступа, удалении контента, изменении алгоритмов или функционала, а также действия владельца канала, которые не могли быть предотвращены при разумной осмотрительности.

8.13. Если действие третьего лица сделало исполнение принятой Заявки невозможным или существенно затрудненным не по вине Сторон, Исполнитель незамедлительно сообщает об этом Заказчику через Личный кабинет и восстанавливает стоимость Размещения на Балансе Заказчика.

9. СДАЧА-ПРИЕМКА И ЭЛЕКТРОННЫЕ ДОКАЗАТЕЛЬСТВА

9.1. Услуга по конкретному Размещению считается оказанной после публикации Материалов в соответствии с Заявкой и истечения предусмотренного Заявкой срока нахождения публикации. Если Заявка включает несколько Размещений, услуги оказываются и принимаются отдельно по каждому из них.

9.2. После выполнения Размещения в Личном кабинете отображается статус, «Завершено». Указанный статус является надлежащим и достаточным доказательством факта публикации рекламных материалов Заказчика, объема оказанных услуг и основания для подписания Акта оказанных услуг.

9.3. Отчетным периодом является календарный месяц. По итогам каждого Отчетного периода Исполнитель формирует и выставляет Заказчику через систему электронного документооборота Didox акт оказанных услуг и электронный счет-фактуру (ЭСФ) на общую сумму итоговых стоимостей фактически и надлежащим образом выполненных в Отчетном периоде Размещений. Документы оформляются на Заказчика и по идентификационным данным, указанным им в Сервисе: ИНН — для юридического лица; ПИНФЛ — для индивидуального предпринимателя или самозанятого лица.

9.4. Заказчик обязан обеспечить возможность получения электронных документов через Didox и в течение 7 (семи) Рабочих дней с даты получения акта подписать его либо направить мотивированные возражения. Возражения должны содержать идентификатор

8.9. “E’lon qilindi” maqomi berilganidan keyin Arizani qaytarib olish mumkin bo’lmaydi, Buyurtmachining ko’rsatilgan xizmatlardan voz kechishi g’ayriqonuniy hisoblanadi va rad etilishi lozim.

8.10. Agar Joylashtirish Buyurtmachining buzilishi bilan bog’liq bo’lmagan holatlar sababli amalga oshmagan bo’lsa, bunday Joylashtirish haqini to’lash uchun zaxiraga olingan butun summa Buyurtmachining Balansida bo’shatiladi.

8.11. Agar e’lon Telegram-kanalda Arizada bevosita ko’rsatilgan muddatdan kam turgan bo’lsa, tegishli Joylashtirish qiymati ko’rsatilmagan qismga mutanosib ravishda kamaytiriladi va mablag’lar Buyurtmachining Balansida tiklanadi. Agar o’chirish Buyurtmachining buzilishi, Materiallarning noqonuniyligi, davlat organining talabi, Telegram blokirovkasi yoki Ijrochi javob bermaydigan boshqa holat tufayli yuzaga kelgan bo’lsa, mutanosib qaytarish qo’llanilmaydi.

8.12. Telegram va Telegram-kanallar egalari mustaqil uchinchi shaxslardir. Ijrochi Telegramning bloklash, foydalanishni cheklash, kontentni o’chirish, algoritmlar yoki funksionalni o’zgartirish to’g’risidagi qarorlarini, shuningdek oqilona ehtiyotkorlik bilan oldini olish mumkin bo’lmagan kanal egasining harakatlarini nazorat qilmaydi.

8.13. Agar uchinchi shaxsning harakati qabul qilingan Arizani bajarishni Tomonlarning aybisiz imkonsiz qilgan yoki jiddiy qiyinlashtirgan bo’lsa, Ijrochi bu haqda Buyurtmachiga Shaxsiy kabinet orqali darhol xabar beradi va Joylashtirish qiymatini Buyurtmachining Balansida tiklaydi.

9. TOPSHIRISH-QABUL QILISH VA ELEKTRON DALILLAR

9.1. Muayyan Joylashtirish bo’yicha xizmat Materiallar Arizaga muvofiq e’lon qilinganidan va Arizada nazarda tutilgan e’lonning turish muddati tugaganidan keyin ko’rsatilgan hisoblanadi. Agar Ariza bir nechta Joylashtirishni o’z ichiga olsa, xizmatlar ularning har biri bo’yicha alohida ko’rsatiladi va qabul qilinadi.

9.2. Joylashtirish bajarilganidan keyin Shaxsiy kabinetda “Yakunlandi” maqomi ko’rsatiladi. Mazkur maqom Buyurtmachining reklama materiallari e’lon qilinganligi, ko’rsatilgan xizmatlar hajmi va Ko’rsatilgan xizmatlar dalolatnomasini imzolash uchun asosning tegishli va yetarli dalilidir.

9.3. Hisobot davri kalendar oy hisoblanadi. Har bir Hisobot davri yakunlari bo’yicha Ijrochi Didox elektron hujjat aylanishi tizimi orqali Buyurtmachiga Hisobot davrida amalda va tegishli tarzda bajarilgan Joylashtirishlarning yakuniy qiymatlari umumiy summasiga ko’rsatilgan xizmatlar dalolatnomasi va elektron hisobvaraq-fakturani (EHF) shakllantiradi hamda taqdim etadi. Hujjatlar Buyurtmachi nomiga va u Servisda ko’rsatgan identifikatsiya ma’lumotlari bo’yicha rasmiylashtiriladi: yuridik shaxs uchun — STIR; yakka tartibdagi tadbirkor yoki o’zini o’zi band qilgan shaxs uchun — JShShIR.

9.4. Buyurtmachi Didox orqali elektron hujjatlarni olish imkoniyatini ta’minlashi va dalolatnoma olingan sanadan boshlab 7 (yetti) Ish kuni ichida uni imzolashi yoki asoslantirilgan e’tirozlarni yuborishi shart. E’tirozlar Ariza identifikatori, kelishilgan parametrlarga aniq nomuvofiqlik, Buyurtmachining talabi va mavjud tasdiqlovchi materiallarni o’z ichiga olishi kerak.

Заявки, конкретное несоответствие согласованным параметрам, требование Заказчика и имеющиеся подтверждающие материалы.

9.5. Если в указанный срок мотивированные возражения не получены, услуги считаются принятыми без замечаний, а односторонне оформленный Исполнителем акт вместе с электронными данными Сервиса подтверждает приемку.

9.6. Замечания к одному Размещению не являются основанием для отказа от приемки иных надлежащим образом выполненных Размещений в том же отчетном периоде.

9.7. Стороны признают юридическую силу электронных документов и сообщений, действий в Личном кабинете, статусов и уведомлений. Распечатка или визуальное представление таких данных может использоваться наряду с электронным оригиналом.

10. ОТВЕТСТВЕННОСТЬ СТОРОН

10.1. Стороны несут ответственность за неисполнение или ненадлежащее исполнение в соответствии с законодательством Республики Узбекистан и Офертой.

10.2. Заказчик отвечает за достоверность и законность предоставленной им информации, содержание Материалов, свойства объекта рекламирования, права на охраняемые объекты, наличие лицензий и разрешений, соответствие посадочных страниц, цен, акций и предложений законодательству.

10.3. Исполнитель несет ответственность в пределах своей роли за согласованные дату, место и способ распространения рекламы, а также за собственные действия при обработке и публикации Материалов.

10.4. Если вследствие нарушения гарантий Заказчика к Исполнителю предъявлены требования, Заказчик по запросу предоставляет документы и содействие, вступает в рассмотрение дела, когда это допускается, и возмещает Исполнителю документально подтвержденные убытки, расходы на разумную юридическую помощь и суммы вступивших в силу штрафов в части, в которой они находятся в прямой причинной связи с нарушением Заказчика. Исполнитель обязан принять разумные меры к уменьшению убытков и не вправе признавать требование третьего лица за счет Заказчика без уведомления последнего, кроме случаев, когда промедление создает риск увеличения ответственности.

10.5. Исполнитель не отвечает за недостижение ожидаемого Заказчиком маркетингового или экономического результата.

10.6. В пределах, допускаемых законодательством, возмещению подлежит документально подтвержденный реальный ущерб, находящийся в прямой причинной связи с нарушением. Косвенные потери, упущенная выгода, потеря клиентов, репутационный ущерб, простой и расходы на альтернативную рекламу не возмещаются, если императивными нормами не установлено иное.

9.5. Agar ko'rsatilgan muddatda asoslantirilgan e'tirozlar olinmasa, xizmatlar e'tirozlarsiz qabul qilingan hisoblanadi, Ijrochi tomonidan bir tomonlama rasmiylashtirilgan dalolatnoma esa Servisning elektron ma'lumotlari bilan birgalikda qabul qilishni tasdiqlaydi.

9.6. Bitta Joylashtirishga doir e'tirozlar ayni hisobot davrida tegishli tarzda bajarilgan boshqa Joylashtirishlarni qabul qilishdan voz kechish uchun asos bo'lmaydi.

9.7. Tomonlar elektron hujjatlar va xabarlarining, Shaxsiy kabinetdagi harakatlarning, maqomlar va bildirishnomalarning yuridik kuchini tan oladilar. Bunday ma'lumotlarning bosma nusxasi yoki vizual ko'rinishi elektron asl nusxa bilan bir qatorda foydalanilishi mumkin.

10. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

10.1. Tomonlar majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va O'ferta muvofiq javobgar bo'ladilar.

10.2. Buyurtmachi o'zi taqdim etgan axborotning ishonchliligi va qonuniyligi, Materiallar mazmuni, reklama obyektining xususiyatlari, muhofaza qilinadigan obyektlarga bo'lgan huquqlar, litsenziyalar va ruxsatnomalarning mavjudligi, maqsadli sahifalar, narxlar, aksiyalar va takliflarning qonunchilikka muvofiqligi uchun javob beradi.

10.3. Ijrochi o'z roli doirasida reklama tarqatishning kelishilgan sanasi, joyi va usuli, shuningdek Materiallarni qayta ishlash va e'lon qilishdagi o'z harakatlari uchun javob beradi.

10.4. Agar Buyurtmachining kafolatlari buzilishi oqibatida Ijrochiga talablar qo'yilsa, Buyurtmachi so'rov bo'yicha hujjatlar va ko'makni taqdim etadi, bunga yo'l qo'yilgan hollarda ishni ko'rib chiqishda ishtirok etadi hamda Buyurtmachining buzilishi bilan bevosita sababiy bog'liq bo'lgan qismda hujjatlar bilan tasdiqlangan zararlarni, oqilona yuridik yordam xarajatlarini va qonuniy kuchga kirgan jarimalar summalarini Ijrochiga qoplaydi. Ijrochi zararlarni kamaytirish uchun oqilona choralar ko'rishi shart va kechikish javobgarlikning oshishi xavfini tug'diradigan hollar bundan mustasno, Buyurtmachini xabardor qilmasdan uning hisobidan uchinchi shaxs talabini tan olishga haqli emas.

10.5. Ijrochi Buyurtmachi kutgan marketing yoki iqtisodiy natijaga erishilmaganligi uchun javob bermaydi.

10.6. Qonunchilikda ruxsat etilgan doirada buzilish bilan bevosita sababiy bog'liq bo'lgan, hujjatlar bilan tasdiqlangan haqiqiy zarar qoplanadi. Agar imperativ normalarda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, bilvosita yo'qotishlar, boy berilgan foyda, mijozlarni yo'qotish, obro'ga zarar, bekor turish va muqobil reklama xarajatlari qoplanmaydi.

10.7. Сторона, ссылающаяся на нарушение, обязана доказать факт нарушения, размер убытков и причинную связь, а также принять разумные меры к предотвращению и уменьшению потерь.

10.8. При просрочке денежного обязательства виновная Сторона уплачивает предусмотренные законодательством проценты, пеню или иные санкции, если их применение и размер установлены законом либо отдельным письменным соглашением Сторон.

11. ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНАЯ СОБСТВЕННОСТЬ

11.1. Исключительные права на Сервис, программный код, базы данных, интерфейсы, дизайн, товарные знаки и материалы Исполнителя принадлежат Исполнителю или его лицензиарам. Договор не передает Заказчику исключительные права на такие объекты.

11.2. Исполнитель предоставляет Заказчику на срок Договора ограниченное, неисключительное, непередаваемое право использовать доступный функционал Сервиса исключительно для формирования и сопровождения Заявок. Запрещаются декомпиляция, обход технических ограничений, автоматизированный сбор данных, вмешательство в работу Сервиса и предоставление доступа третьим лицам вне полномочий Уполномоченных пользователей.

11.3. Заказчик предоставляет Исполнителю и привлекаемым им лицам на срок, необходимый для исполнения Заявки, неисключительное безвозмездное право воспроизводить, технически адаптировать, хранить, передавать владельцу Telegram-канала, публично размещать и демонстрировать Материалы в объеме, необходимом для оказания услуг, отчетности и защиты прав по Договору.

12. КОНФИДЕНЦИАЛЬНОСТЬ И ПЕРСОНАЛЬНЫЕ ДАННЫЕ

12.1. Текст Оферты и общедоступные сведения Сервиса не являются конфиденциальными. Конфиденциальной признается не являющаяся общедоступной информация о коммерческой деятельности Стороны, конкретных Заявках, ценовых условиях, технологиях, клиентах и контрагентах, которая обозначена как конфиденциальная либо по характеру очевидно требует такого режима.

12.2. Получающая Сторона использует конфиденциальную информацию только для исполнения Договора, ограничивает доступ лицами, которым она необходима, и обеспечивает не меньшую степень защиты, чем для собственной аналогичной информации. Раскрытие допускается работникам, консультантам, подрядчикам, банкам и государственным органам при наличии законного основания и обязанности соблюдать конфиденциальность.

12.3. Обязанность конфиденциальности действует в течение срока Договора и 5 (пяти) лет после его прекращения, если более длительный срок не следует из закона или характера охраняемой информации.

12.4. Персональные данные представителей и пользователей обрабатываются для регистрации, идентификации, безопасности, исполнения Заявок, расчетов,

10.7. Buzilish holatiga tayanuvchi Tomon buzilish faktini, zarar miqdorini va sababiy bog'liqlikni isbotlashi, shuningdek yo'qotishlarning oldini olish va ularni kamaytirish uchun oqilona choralar ko'rishi shart.

10.8. Pul majburiyati kechiktirilganda, agar ularning qo'llanilishi va miqdori qonunda yoki Tomonlarning alohida yozma kelishuvida belgilangan bo'lsa, aybdor Tomon qonunchilikda nazarda tutilgan foizlar, penya yoki boshqa sanksiyalarni to'laydi.

11. INTELLEKTUAL MULK

11.1. Servis, dasturiy kod, ma'lumotlar bazalari, interfeyslar, dizayn, tovar belgilari va Ijrochining materiallariga bo'lgan mutlaq huquqlar Ijrochiga yoki uning litsenziarlariga tegishli. Shartnoma Buyurtmachiga bunday obyektlarga bo'lgan mutlaq huquqlarni bermaydi.

11.2. Ijrochi Buyurtmachiga Shartnoma muddati davomida Servisning mavjud funksionalidan faqat Arizalarni shakllantirish va kuzatib borish uchun foydalanish bo'yicha cheklangan, nomutlaq, boshqa shaxsga o'tkazilmaydigan huquqni beradi. Dekompilyatsiya qilish, texnik cheklovlarini chetlab o'tish, ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda yig'ish, Servis ishiga aralashish va Vakolatli foydalanuvchilarning vakolatlaridan tashqari uchinchi shaxslarga foydalanish imkonini berish taqiqlanadi.

11.3. Buyurtmachi Ijrochiga va u jalb qiladigan shaxslarga Arizani bajarish uchun zarur bo'lgan muddatga xizmatlar ko'rsatish, hisobot yuritish va Shartnoma bo'yicha huquqlarni himoya qilish uchun zarur hajmda Materiallarni takrorlash, texnik moslashtirish, saqlash, Telegram-kanal egasiga uzatish, ommaviy joylashtirish va namoyish etish uchun nomutlaq, bepul huquq beradi.

12. MAXFIYLIK VA SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLAR

12.1. Oferta matni va Servisning umumfoydalanishdagi ma'lumotlari maxfiy hisoblanmaydi. Tomonning tijorat faoliyati, muayyan Arizalar, narx shartlari, texnologiyalar, mijozlar va kontragentlar haqidagi umumfoydalanishda bo'lmagan, maxfiy deb belgilangan yoki o'z xususiyatiga ko'ra bunday rejimni talab qilishi aniq bo'lgan axborot maxfiy deb e'tirof etiladi.

12.2. Qabul qiluvchi Tomon maxfiy axborotdan faqat Shartnomani bajarish uchun foydalanadi, undan foydalanishni axborot zarur bo'lgan shaxslar bilan cheklaydi va o'zining shunga o'xshash axborotiga nisbatan qo'llaniladigan himoya darajasidan kam bo'lmagan darajani ta'minlaydi. Axborotni oshkor qilishga xodimlar, maslahatchilar, pudratchilar, banklar va davlat organlariga qonuniy asos hamda maxfiylikka rioya qilish majburiyati mavjud bo'lganda yo'l qo'yiladi.

12.3. Agar qonun yoki muhofaza qilinadigan axborotning xususiyatidan uzoqroq muddat kelib chiqmasa, maxfiylik majburiyati Shartnoma amal qiladigan davrda va u bekor qilinganidan keyin 5 (besh) yil davomida amal qiladi.

12.4. Vakillar va foydalanuvchilarning shaxsga doir ma'lumotlari ro'yxatdan o'tkazish, identifikatsiya, xavfsizlik, Arizalarni bajarish, hisob-kitoblar, hujjat aylanishi, qo'llab-quvvatlash

документооборота, поддержки и защиты прав в соответствии с законодательством и Политикой конфиденциальности, размещенной на сайте <https://my.tginsider.app> .

13. ОБСТОЯТЕЛЬСТВА НЕПРЕОДОЛИМОЙ СИЛЫ

13.1. Сторона освобождается от ответственности за неисполнение обязательства, если докажет, что оно вызвано чрезвычайным и непредотвратимым при данных условиях обстоятельством, возникшим после заключения Договора и непосредственно повлиявшим на исполнение.

13.2. К таким обстоятельствам могут относиться стихийные бедствия, пожар, эпидемия, война, массовые беспорядки, обязательные акты или запреты государственных органов, масштабное прекращение работы инфраструктуры связи или энергоснабжения и иные обстоятельства, отвечающие критериям пункта 13.1. Отсутствие денежных средств, нарушение со стороны обычного контрагента или неисправность оборудования, которую можно было разумно предотвратить, сами по себе не являются форс-мажором.

13.3. Сторона уведомляет другую Сторону в течение 5 (пяти) календарных дней после того, как ей стало известно о форс-мажоре, указывает его характер, предполагаемую продолжительность и затронутые обязательства и по запросу предоставляет подтверждение компетентного органа или Торгово-промышленной палаты, если получение такого подтверждения возможно и требуется.

13.4. На время действия форс-мажора срок исполнения затронутого обязательства продлевается соразмерно периоду препятствия и его последствий. Если невозможность исполнения конкретной Заявки продолжается более 30 (тридцати) календарных дней, любая Сторона вправе прекратить ее с расчетом за фактически оказанные услуги и понесенные расходы. Денежные обязательства за уже оказанные услуги не прекращаются.

14. СРОК ДЕЙСТВИЯ, ИЗМЕНЕНИЕ И ПРЕКРАЩЕНИЕ

14.1. Оферта действует с указанной на первой странице даты до ее отзыва Исполнителем. Договор с конкретным Заказчиком действует с момента акцепта до закрытия Личного кабинета и завершения взаиморасчетов.

14.2. Исполнитель вправе в одностороннем порядке изменять Оферту для будущих Заявок. Новая редакция публикуется в Сервисе не менее чем за 3 (три) календарных дня до вступления в силу. Заказчик обязан самостоятельно отслеживать изменения в Оферте и при несогласии отказаться от договорных отношений с Исполнителем с уведомлением Исполнителя за 3 рабочих дня до даты такого отказа.

14.3. Принятые до вступления новой редакции Оферты Заявки исполняются по редакции Оферты, действовавшей на момент их принятия. Направление новой Заявки после даты вступления изменений в силу означает согласие Заказчика с новой редакцией.

14.4. Заказчик вправе прекратить Договор путем закрытия Личного кабинета после отмены или исполнения активных Заявок и погашения задолженности. Неиспользованный остаток Баланса возвращается Заказчику.

va huquqlarni himoya qilish maqsadida qonunchilikka hamda <https://my.tginsider.app> saytida joylashtirilgan Maxfiylik siyosatiga muvofiq qayta ishlanadi.

13. FORS-MAJOR HOLATLAR

13.1. Tomon majburiyatni bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi, agar u bunday bajarmaslik Shartnoma tuzilganidan keyin yuzaga kelgan, mazkur sharoitlarda favqulodda va oldini olib bo'lmaydigan hamda bajarishga bevosita ta'sir ko'rsatgan holat tufayli yuz berganini isbotlasa.

13.2. Bunday holatlarga tabiiy ofatlar, yong'in, epidemiya, urush, ommaviy tartibsizliklar, davlat organlarining majburiy hujjatlari yoki taqiqlari, aloqa yoki energiya ta'minoti infratuzilmasi ishining keng ko'lamda to'xtashi va 13.1-band mezonlariga javob beradigan boshqa holatlar kirishi mumkin. Pul mablag'larining yo'qligi, oddiy kontragent tomonidan majburiyatning buzilishi yoki oqilona ravishda oldini olish mumkin bo'lgan uskunaning nosozligi o'z-o'zidan fors-major hisoblanmaydi.

13.3. Tomon fors-major haqida bilganidan keyin 5 (besh) kalendar kuni ichida boshqa Tomonni xabardor qiladi, uning xususiyati, taxminiy davomiyligi va ta'sirlangan majburiyatlarni ko'rsatadi hamda bunday tasdiqni olish mumkin va talab qilinadigan bo'lsa, so'rovga ko'ra vakolatli organ yoki Savdo-sanoat palatasining tasdig'ini taqdim etadi.

13.4. Fors-major amal qiladigan davrda ta'sirlangan majburiyatni bajarish muddati to'siq va uning oqibatlariga davriga mutanosib ravishda uzaytiriladi. Agar muayyan Arizani bajarish imkonsizligi 30 (o'ttiz) kalendar kundan ortiq davom etsa, har qanday Tomon amalda ko'rsatilgan xizmatlar va qilingan xarajatlar bo'yicha hisob-kitob qilgan holda uni bekor qilishga haqli. Ko'rsatilgan xizmatlar uchun pul majburiyatlari bekor qilinmaydi.

14. AMAL QILISH MUDDATI, O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH

14.1. Ofera birinchi sahifada ko'rsatilgan sanadan boshlab Ijrochi uni chaqirib olguniga qadar amal qiladi. Muayyan Buyurtmachi bilan tuzilgan Shartnoma aksept paytidan boshlab Shaxsiy kabinet yopilguniga va o'zaro hisob-kitoblar yakunlanguniga qadar amal qiladi.

14.2. Ijrochi kelgusidagi Arizalar uchun Ofertani bir tomonlama tartibda o'zgartirishga haqli. Yangi tahrir Servisda kuchga kirishidan kamida 3 (uch) kalendar kuni oldin e'lon qilinadi. Buyurtmachi Ofertadagi o'zgartirishlarni mustaqil ravishda kuzatishi va rozi bo'lmagan taqdirda bunday voz kechish sanasidan 3 ish kuni oldin Ijrochini xabardor qilib, Ijrochi bilan shartnomaviy munosabatlardan voz kechishi shart.

14.3. Ofertaning yangi tahriri kuchga kirguniga qadar qabul qilingan Arizalar ular qabul qilingan paytda amal qilgan Ofera tahririga muvofiq bajariladi. O'zgartirishlar kuchga kirgan sanadan keyin yangi Arizani yuborish Buyurtmachining yangi tahririga roziligini anglatadi.

14.4. Buyurtmachi faol Arizalar bekor qilinganidan yoki bajarilganidan va qarzdorlik to'langanidan keyin Shaxsiy kabinetni yopish orqali Shartnomani bekor qilishga haqli. Balansning foydalanilmagan qoldig'i Buyurtmachiga qaytariladi.

14.5. Исполнитель вправе временно ограничить доступ либо отказаться от Договора при существенном или повторном нарушении Заказчиком, незаконном использовании Сервиса, предоставлении недостоверных данных или наличии просроченной задолженности.

14.6. Прекращение Договора не освобождает Стороны от исполнения возникших до прекращения денежных обязательств и не прекращает положения о расчетах, ответственности, интеллектуальной собственности, конфиденциальности, доказательствах и разрешении споров.

15. УВЕДОМЛЕНИЯ И ОБМЕН ДОКУМЕНТАМИ

15.1. Юридически значимые сообщения направляются через Личный кабинет, систему электронного документооборота либо на электронные адреса, указанные Заказчиком и Исполнителем. Сообщение считается полученным: в Личном кабинете — в момент его размещения; по электронной почте — в момент доставки на сервер адресата при отсутствии сообщения об ошибке; через ЭДО — по данным соответствующей системы.

15.2. Претензии, уведомления о расторжении, компрометации доступа и изменении реквизитов должны позволять достоверно определить отправителя и содержание. Исполнитель вправе запросить подтверждение электронной цифровой подписью или иным способом, если сообщение влечет возврат денежных средств, изменение получателя платежа или существенные правовые последствия.

15.3. Заказчик обязан поддерживать контактные сведения актуальными. Риск неполучения сообщений вследствие неуведомления об их изменении несет Заказчик.

16. ПРЕТЕНЗИИ И РАЗРЕШЕНИЕ СПОРОВ

16.1. К Договору применяется законодательство Республики Узбекистан.

16.2. До обращения в суд Сторона направляет мотивированную претензию с изложением обстоятельств, требований, расчета и подтверждающих документов. Претензия может быть направлена через ЭДО, Личный кабинет или на электронный адрес, указанный в реквизитах, с последующим предоставлением оригинала, если он требуется законом.

16.3. Сторона, получившая претензию, обязана дать ответ в течение 15 (пятнадцати) дней со дня ее получения, если иной срок не установлен императивными нормами для соответствующей категории спора.

16.4. Неурегулированный спор передается в компетентный экономический суд Республики Узбекистан по месту нахождения Исполнителя, если соглашение о такой договорной подсудности допускается применимыми императивными нормами. В противном случае спор рассматривается по подсудности, установленной законодательством.

14.5. Buyurtmachi jiddiy yoki takroran buzilish sodir etganida, Servisdan noqonuniy foydalanganida, ishonchsiz ma'lumotlar taqdim etganida yoki muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lganda Ijrochi foydalanish imkonini vaqtincha cheklashga yoki Shartnomadan voz kechishga haqli.

14.6. Shartnomaning bekor qilinishi Tomonlarni bekor qilinishidan oldin yuzaga kelgan pul majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi hamda hisob-kitoblar, javobgarlik, intellektual mulk, maxfiylik, dalillar va nizolarni hal qilish to'g'risidagi qoidalarning amal qilishini tugatmaydi.

15. BILDIRISHNOMALAR VA HUJJATLAR ALMASHINUVI

15.1. Yuridik ahamiyatga ega xabarlar Shaxsiy kabinet, elektron hujjat aylanishi tizimi orqali yoki Buyurtmachi va Ijrochi ko'rsatgan elektron manzillarga yuboriladi. Xabar quyidagi paytda olingan hisoblanadi: Shaxsiy kabinetda — joylashtirilgan paytda; elektron pochta orqali — xatolik haqidagi xabar bo'lmaganda adresat serveriga yetkazilgan paytda; elektron hujjat aylanishi tizimi orqali — tegishli tizim ma'lumotlariga ko'ra.

15.2. Talabnomalar, bekor qilish, kirish ma'lumotlarining buzilishi va rekvizitlar o'zgarishi haqidagi bildirishnomalar jo'natuvchini va mazmunni ishonchli aniqlash imkonini berishi kerak. Agar xabar pul mablag'larini qaytarishga, to'lovni oluvchini o'zgartirishga yoki jiddiy huquqiy oqibatlarga olib kelsa, Ijrochi elektron raqamli imzo yoki boshqa usul bilan tasdiqlashni so'rashga haqli.

15.3. Buyurtmachi aloqa ma'lumotlarini dolzarb holatda saqlashi shart. Ularning o'zgargani haqida xabardor qilmaslik oqibatida xabarlarni olmaslik xavfini Buyurtmachi o'z zimmasiga oladi.

16. TALABNOMALAR VA NIZOLARNI HAL QILISH

16.1. Shartnomaga O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi qo'llaniladi.

16.2. Sudga murojaat qilishdan oldin Tomon holatlar, talablar, hisob-kitob va tasdiqlovchi hujjatlar bayon etilgan asoslantirilgan talabnomani yuboradi. Talabnoma elektron hujjat aylanishi tizimi, Shaxsiy kabinet orqali yoki rekvizitlarda ko'rsatilgan elektron manzilga, agar qonunda talab qilinsa, keyinchalik asl nusxasini taqdim etgan holda yuborilishi mumkin.

16.3. Talabnomani olgan Tomon, agar nizoning tegishli toifasi uchun imperativ normalarda boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, uni olgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kun ichida javob berishi shart.

16.4. Hal qilinmagan nizo, agar shartnomaviy sudlovga tegishlilik to'g'risidagi bunday kelishuvga qo'llaniladigan imperativ normalarda yo'l qo'yilsa, Ijrochi joylashgan yerdagi O'zbekiston Respublikasining vakolatli iqtisodiy sudiga topshiriladi. Aks holda, nizo qonunchilikda belgilangan sudlovga tegishlilik bo'yicha ko'rib chiqiladi.

17. ЗАКЛЮЧИТЕЛЬНЫЕ ПОЛОЖЕНИЯ

17.1. Недействительность отдельного положения не влечет недействительность остальных условий. Стороны заменяют такое положение допустимым условием, наиболее близким по экономическому смыслу.

17.2. Неосуществление или задержка в осуществлении права не означает отказ от него.

17.3. Настоящая Оферта опубликована на узбекском и русском языках.

18. РЕКВИЗИТЫ ИСПОЛНИТЕЛЯ

ООО «ADHAND TECH»

Адрес: 100077, город Ташкент, Мирзо-Улугбекский район, МСГ «Элобод», улица Чуст, 1

ИНН: 312520271

Банк: АКБ «Kapitalbank», филиал Mirzo Ulug'bek

Счёт UZS: 20208000507334463001

Счёт USD: 20208840807334463001

Счёт RUB: 20208643907334463001

Счёт EUR: 20208978107334463001

МФО (код банка): 01158

ИНН банка: 207275139

ОКПО: 20084803

ОКЭД: 64190

Генеральный директор: Д. М. Мирзаева

17. YAKUNIY QOIDALAR

17.1. Alohida qoidaning haqiqiy emasligi qolgan shartlarning haqiqiy emasligiga olib kelmaydi. Tomonlar bunday qoidani iqtisodiy mazmuniga eng yaqin bo'lgan yo'l qo'yiladigan shart bilan almashtiradilar.

17.2. Huquqni amalga oshirmaslik yoki uni amalga oshirishni kechiktirish undan voz kechishni anglatmaydi.

17.3. Ushbu Oferta o'zbek va rus tillarida e'lon qilingan.

18. IJROCHINING REKVIZITLARI

“ADHAND TECH” MChJ

Manzil: 100077, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, “Elobod” MFY, Chust ko'chasi, 1-uy

STIR: 312520271

Bank: “Kapitalbank” ATB, Mirzo Ulug'bek filiali

UZS hisobvarag'i: 20208000507334463001

USD hisobvarag'i: 20208840807334463001

RUB hisobvarag'i: 20208643907334463001

EUR hisobvarag'i: 20208978107334463001

MFO (bank kodi): 01158

Bank STIRi: 207275139

OKPO: 20084803

OKED: 64190

Bosh direktor: D. M. Mirzayeva